

TURSUNBOY ADASHBOYEV SHE'RIYATINING O'ZIGA HOS JIHLTLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7814079>

Olimova Feruza

Profi Universiteti bo'shlang'ich ta'lim 222-guruh talabasi

Ilmiy rahbar:N.Keldiyorova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoirlaridan biri bo'lgan Tursunboy Adashboyevning she'riyati, she'rlaridagi sermanolik va she'rlarini o'qisangiz bolalikning turli davrlariga sayohat qilasiz. Uning she'rlari bolalar yaxshi ko'radigan shirinliklar kabi totli va mazali bo'lgan jumalarga ko'zimiz tushadi. Maqolada ularning she'rlaridagi o'ziga hoslik bilan tanishib chiqamiz.*

Kalit so'z: *X. Davron, T. Jo'ra, Sh. Qurbon, U. Azim, M. Rahmon, psixologiya, xayol osmon, yalpiz, she'riyat, qora tun, o'qish uchun*

Abstract: *If you read the poetry of Tursunboy Adashboyev, one of the favorite poets of our people, in three articles, you will travel to different periods of childhood. Our eyes are drawn to the sweet and delicious sentences of his poems, like sweets that children love.*

Keyword: *H. Davron, T. Jora, Sh. Qurban, U. Azim, M. Rahman, psychology, fantasy sky, mint, poetry, black night, for reading*

Абстрактный: *Если вы прочтете стихи Турсунбая Адашбоева, одного из любимых поэтов нашего народа, в трех статьях, вы перенесетесь в разные периоды детства. Наши глаза притягиваются к сладким и вкусным предложениям его стихов, как сладости, которые любят дети.*

Ключевое слово: *X. Даврон, Т. Джора, Ш. Курбан, У. Азим, М. Рахман, психология, фэнтезийное небо, мята, поэзия, черная ночь, для чтения*

Cho'ntagingdan tushib qolsa,

Ellik besh tiyin tanga.

Qani menga aytib berchi,

Nima qolar kistangda?

To'plab yurgan tangalarim.

Jami ellik besh edi.

Demak, unda qolar faqat,

Cho'ntagimning teshigi. A

Bolalar adabiyotini varaqlar ekanmiz, Q. Muhammadiy, Q. Hikamat, H. Toxtaboyev, A. Obidjon, K. Turdiyeva, A. Akbar, D. Rajab kabi shoir va yozuvchilar tarkibida Tursunboy Adashboyevning ham salmoqli o'zni borligini bilamiz. Tursunboy Adashboyev she'rlarini o'qisangiz bolalikning turli davrlariga sayohat qilasiz. Uning she'rlari bolalar yaxshi ko'radigan shirinliklar kabi totli va mazalidir. Shoir she'rlarini

o'qib, bolalarni jonidan ortiq yaxshi ko'rishini, ularning harakatlarini sinchikovlik bilan kuzatganligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham shoir she'riyatida quvnoq yumorni, samimiy hazilkashligini his etamiz. Shoir she'rlarida bolalar tabiyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni mehrobon ota kabi, yordamchi aka kabi va kuzatuvchi ustoz kabi his etgan holatda yozganligini sezish qiyin emas. Shoir she'rlarida bolalar psixologiyasini yaxshi bilgan psixolog ekanligini anglanymiz. Biz bilamizki, bolalarni xayol osmoni bepoyondur, unda qora tun emas quyoshli tunlar mujassam bo'ladi. Bu hissiyotni shoir to'g'ri anglagan holda bolalarni ishontirish usulidan foydalangan. Tursunboy Adashboyev she'riyatini o'qigan har bir kitobxon, u yoshu qari bo'lsin barcha birdek bolalar bog'ida sayir etishgandek bo'ladi.

Shoir she'riyatining til xususiyatlari o'ta sodda, o'qilishi yengil, tushunish juda ham oson. Bolalarcha samimiy so'zlar, samimiy kulgi sizni ancha vaqt tark etmaydi. Biz bolaligimizda ertaklar olamiga sayohat qilganmiz, shoir sheriyyatini o'qisangiz siz ham o'zingizni ertaklar olamiga sayir qilgandek his etasiz:

Qarg'a qaqimchi ekan,

Chumchuq chaqimchi ekan,

G'oz karnaychi ekan,

O'rdak surnaychi ekan.

kabi bolaligimizda eshitgan ertak boshlanmalari shoir she'riyatida ham:

G'oz karnaychi bo'lmasin,

O'rdak surnaychi bo'lmasin.

Karnaychi Shokir tog'am,

Xafa bo'lib qolmasin .

tarzida shakllantirilgan.

Shoir she'riyatida tabiat, o'simliklar dunyosi, Vatan, ona, qushlar, osmon, tuproq kabi mavzularni uchratishimiz mumkin. Shoir she'riyatida turli xil parodiyalar, hazilnoma, quvnoq deydiyolar ham o'rin olgan.

T.Adashboyevni shoir sifatida emas mohir tarjimon, shuningdek, parodiyana vislik mahoratiga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. Uning ijodida muqallid she'rlar ham mavjud. Masalan, X.Davron, T.Jo'ra, Sh.Qurbon, U.Azim, M.Rahmon, Sh.Rahmonlar she'riyatida qo'llanilgan yalpiz haqidagi she'rlarida muqallid sifatida men shunday yozardim deb:

Onam ishdan qaytdilar,

Yalpiz ter deb aytdilar.

Anhor bo'yiga chopdim,

Bir chelak yalpiz topdim,

Sizga aytsam chin so'zim,

Terganim yo'q bir o'zim.

Raxmat aytdim Boqiga,

Qoyil dedim Soqiga.

Yalpiz solsa qurt tushmas,

Olma, o'rik qoqiga.

yalpiz haqidagi she'rini yozgan.

Donak haqidagi Q.Muhammadiy, P.Mo'min, T.Yo'dosh, H.Yoqubov, M.Azam, Y.Sulaymon, S.Barnoyev, R.Tolib, X.Raxmon she'rlarini o'qib men shunday yozardim:

Bir hovuchcha donakdan

Bir hovuch qopti, demak -

Qorong'ida shoirlar

Ko'rmagan bo'lsa kerak kabi she'riy jummalarni shakllantira olgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolalar shoiri T.Adashboyev she'riyati hamma uchun birday. o'qish uchun, ruhiyatni ko'tarish va qaysidir ma'noda saboq olish uchun o'qishni o'ta muhim deb hisoblaymiz:

...Xohish va ta'b ne o'zi,

Kim nimani xush ko'rar.

Tulki kavar izlaydi,

Ayiq bolni tush ko'rar...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T.Adashboyev. Osmondagi darvoza. Toshkent, 1964.
2. T.Adashboyev. Oqbura to'lqinlari. Toshkent, 1985.